

“MY INSURANCE” AJ ST
Bosh direktorining
“ _____ ” _____ 2024 yildagi
_____ -II sonli Buyrug‘iga
1-Ilova

“QULAY KASKO” QOIDALARI

Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda “MY-INSURANCE” AJ ST ning “Transport vositalari va ularga aloqador xavflarni sug‘urta qilish qoidalarini” (matn davomida – Qoidalar) asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarni zamon talablaridan kelib chiqqan holda - **“QULAY KASKO”** Qoidalarini (keyingi o‘rinlarda Qoidalar) asosida sug‘urta qilish tartibi va shartlarini belgilab beradi.

Ooidalar maqsadi:

Sug‘urta qildiruvchining transport vositalarini yo‘l-transport hodisasi (amaldagi yo‘l harakati qoidalariga muvofiq, matn davomida – YTH), yong‘in, portlash, olib qochish, predmetlarning tushib ketishi oqibatida yetkazilgan zarardan sug‘urta qilish.

Sug‘urta obyekti bo‘lib, Sug‘urta qildiruvchining sug‘urta Polisi amal qilish davrida transport vositasiga YTH, yong‘in, portlash, uchunchi shaxslarning g‘ayriqonuniy harakatlari, predmetlarning tushib ketishi oqibatida zarar etishi bilan bog‘liq mulkiy manfaatlarini hisoblanadi.

Sug‘urta sub'ektlari bo‘lib, Sug‘urtalovchi hamda sug‘urta Polisida Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchi sifatida ko‘rsatilgan shaxslar hisoblanadilar.

Sug‘urtalovchi – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi lisenziyasi asosida faoliyat yurituvchi «MY - INSURANCE» AJ Sug‘urta Tashkiloti.

Sug‘urta qildiruvchi – Sug‘urtalovchi bilan sug‘urta Polisini tuzgan va u bo‘yicha sug‘urta mukofotini to‘lagan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug‘urta polisi – sug‘urta mukofoti to‘langanidan so‘ng, Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga topshiriluvchi hamda uning sug‘urta summasi doirasida javobgarligini tasdiqlovchi hujjat.

Sug‘urta summasi – Sug‘urtalovchi sug‘urta Polisi bo‘yicha Sug‘urta qildiruvchi oldidagi majburiyatlarini qoplashi uchun pul summasining eng yuqori hajmi.

Sug‘urta mukofoti – Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta Polisiga muvofiq, Sug‘urtalovchi (uning agenti)ga to‘lashi shart bo‘lgan sug‘urta uchun haq (badal).

Sug‘urta tovon – sug‘urta Polisida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash uchun Sug‘urtalovchi tomonidan to‘lanadigan pul mablag‘lari summasi.

Subrogatsiya - Sug‘urta qildiruvchining zarar qoplanishiga bo‘lgan huquqlarining sug‘urtalovchiga o‘tishi

Sug‘urta dalolatnomasi – sug‘urta hodisasi ro‘y berganda sug‘urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan hujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo‘lish sabablari, ko‘rilgan zarar miqdori va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug‘urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong‘inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo‘jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma xulosasi ilova qilinadi. Sug‘urta dalolatnomasini Sug‘urta kompaniyasining vakili tuzadi va sug‘urta hodisasini tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinishi mumkin.

Naf oluvchi – sugʻurta Polisi uning foydasiga tuzilgan shaxs. Agar sugʻurta Polisida boshqa shaxs foydasiga tuzilganligi koʻrsatilmagan boʻlsa, sugʻurta Polisi Sugʻurta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi, Sugʻurta qildiruvchining oʻlimi holatida esa uning merosxoʻri foydasiga tuzilgan hisoblanadi.

Sugʻurta qoplamasi hududi – Oʻzbekiston Respublikasi.

Sugʻurta javobgarligi vaqti – tunu kun.

Sugʻurta javobgarligi davri – bir yil.

Qoidalarga koʻra sugʻurta mahsulot turlari – ushbu Qoidalarga koʻra, sugʻurta mukofoti va sugʻurta summasiga qarab farq qiluvchi 3 xil turdagi **“KASKO- STANDART”**, **“KASKO-PREMIUM”**, **“KASKO -SUPER”** sugʻurta turlari (polislari) mavjud. Qoidalarga koʻra har bir sugʻurta qildiruvchi faqat 1 (bir) turdagi sugʻurta polisini rasmiylashtirishi mumkin.

SUGʻURTA PULI VA SUGʻURTA MUKOFOTI

a) “KASKO- STANDART” mazkur sugʻurta Polisi boʻyicha 50 000 000 (ellik million) soʻmdan kam boʻlmagan miqdorda sugʻurta summasi belgilanadi;

- sugʻurta mukofoti sugʻurta summasining **3,0** foizini – **1 500 000** (bir million besh yuz ming) soʻmdan kam boʻlmagan miqdorni tashkil etib, bir yillik sugʻurta davri uchun toʻlov hisoblanadi.

b) “KASKO - PREMIUM” mazkur sugʻurta Polisi boʻyicha 100 000 000 (yuz million) soʻmdan kam boʻlmagan miqdorda sugʻurta summasi belgilanadi;

- sugʻurta mukofoti sugʻurta summasining **2,5** foizini – **2 500 000** (ikki million besh yuz ming) soʻmdan kam boʻlmagan miqdorni tashkil etib, bir yillik sugʻurta davri uchun toʻlov hisoblanadi.

d) “KASKO -SUPER” mazkur sugʻurta Polisi boʻyicha 200 000 000 (ikki yuz million) soʻmdan kam boʻlmagan miqdorda sugʻurta summasi belgilanadi;

- sugʻurta mukofoti sugʻurta summasining **2** foizini – **4 000 000** (toʻrt million) soʻmdan kam boʻlmagan miqdorni tashkil etib, bir yillik sugʻurta davri uchun toʻlov hisoblanadi.

Quyidagi hodisalar sugʻurta hodisalari hisoblanadi: transport vositasiga yoʻl-transport hodisasi (amaldagi yoʻl harakati qoidalariga muvofiq), yongʻin, portlash, predmetlarning tushib ketishi oqibatida zarar yetishi, uchinchi shaxslarning transport vositasiga nisbatan noqonuniy harakati;

Quyidagilar oqibatida yuz bergan voqealar sugʻurta hodisasi deb tan olinmaydi va sugʻurta tovonini toʻlanmaydi:

a) transport vositasini boshqarish uchun zaruriy hujjatlarga ega boʻlmagan shaxs tomonidan boshqarilishi.

b) alkogol, narkotik yoki toksik moddalar yoxud TV ni boshqarishda taqiqlangan dori-darmonlarni qabul qilish ta'sirida mast holatda boʻlgan shaxs tomonidan TVni boshqarilishi, shuningdek sugʻurtalangan TV haydovchisining YTH joyidan yashirinishi yoki tibbiy tekshiruv (ekspertiza)dan oʻtishdan bosh tortishi;

d) haydovchi oʻzining yoki uchinchi shaxslarning hayoti va salomatligini saqlash, oʻz fuqarolik burchini bajarishga aloqador harakatlardan tashqari sugʻurta hodisasini keltirib chiqarish maqsadida qasddan qilingan harakatlar natijasida zarar yetishi;

e) Sugʻurta qildiruvchi yoki uning ishonchli vakili tomonidan sugʻurta tovonini olish maqsadida berilgan ma'lumotlar yolgʻonligining aniqlanishi;

f) yadroviy portlash, xarbiy yurishlar, ommaviy isyon, ommaviy ish tashlash kabi jarayonlarda zarar etishi.

Polis boʻyicha quyidagi holatlar sugʻurta hodisasiga kirmaydi:

- boshqa sugʻurta hodisalarini keltirib chiqarmagan holda shinalarning shikastlanishi, elektr

tokining qisqa tutashuvi vujudga kelishi natijasida transport vositasiga zarar etishi;

- transport vositasini ro'yxatga olish belgilarining, shuningdek transportni ishlab chiqaruvchi - zavod tomonidan o'rnatilmagan va/yoki qo'shimcha uskunalar sifatida sug'urtalanmagan uskunalarining o'g'irlanishi, shikastlanishi;

- sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalangan transport vositasining ichida bo'lgan mol-mulkka zarar yetishi.

Sug'urtalash tartibi va jarayoni:

Sug'urta qildiruvchi tomonidan ushbu Qoidalaridagi kerakli sug'urta shartlari tanlangan holda hisoblangan sug'urta mukofoti to'langandan so'ng Sug'urtalovchi (sug'urta agenti) tomonidan sug'urta Polisini berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Sug'urta qildiruvchi sug'urta Polisining amal qilish muddati tugagunga qadar voz kechganda, Sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

Agar, Sug'urta qildiruvchi sug'urta Polisini Sug'urtalovchiga sug'urta javobgarligi muddati boshlanishidan avval qaytarsa, Polis to'xtatiladi va sug'urta mukofoti to'liqligicha mijozga qaytariladi.

Sug'urta Polisi har qanday sabablarga ko'ra yo'qolganda, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga o'rnatilgan tartiblarga asosan dublikat beradi.

Sug'urta Polisi berilgan vaqtdan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan asoslarda hamda quyida keltirilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

- Polisdagi keltirilgan sug'urtalangan transport vositasi jinoiy yo'l bilan topilgan, xatlangan, hibsdagi yoki sud qarori asosida musodara etilgan bo'lsa;

- Sug'urta Polisi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga Sug'urtalovchi tomonidan ishni olib borishga ketgan xarajatlarni (sug'urta mukofotining 25 foizi miqdorida) hamda to'langan sug'urta to'lovni chegirib qolingan holda qaytariladi. Bunda to'langan sug'urta to'lovni miqdori qaytariladigan summadan ortiq summani tashkil qilsa, Sug'urta qildiruvchi to'langan sug'urta to'lovining farqini bir oy muddat ichida Sug'urtalovchiga to'liq hajmda qaytarishi lozim.

Sug'urta to'lovini to'lash tartibi va shartlari:

- sug'urta to'lovini, Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi bo'yicha barcha zaruriy hujjatlar taqdim etilgach, Sug'urtalovchi tomonidan shikastlangan transport vositasi tekshiruvdan o'tkazilib, tekshiruv dalolatnomasi tuzilgach, zararni keltirib chiqargan holatlar, sabablar, zararning miqdori, xususiyati to'liq aniqlangach va yuz bergan hodisa Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi deb tan olingach, 3-5 ish kuni ichida to'lab beriladi. Bunda sug'urta hodisasining yuz berish sabablari va zarar miqdorini asoslovchi hujjatlarni taqdim etish majburiyati Sug'urta qildiruvchining zimmasida bo'ladi.

- Sug'urta qoplamasi sug'urta Polisining amal qilish davrida faqat bir marta amalga oshiriladi. Ya'ni, sug'urta polisi bo'yicha birinchi yuz bergan sug'urta hodisasi yuzasidan to'lov amalga oshirilishi bilan ushbu polis muddati tugagan hisoblanadi.

- Har bir tomon mustaqil ekspertizani, uni o'tkazish taklifini bildirgan tomon hisobiga o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega.

Sug'urta qildiruvchining sug'urta hodisasi yuz bergandagi majburiyatlari:

ZARAR YETKAZILISHI (transport vositasiga YTH, yong'in, portlash, predmetlarning tushib ketishi, uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy xarakatlari oqibatida zarar etishi) xavfi bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berganda:

- zudlik bilan Sug'urtalovchiga har qanday maqbul yo'l bilan (telefon, telegram, faks orqali)

ma'lum qilishi, hamda sug'urtalovchi ko'rsatmasiga ko'ra chora-tadbirlar ko'rishi shart;

- Sug'urta qoplamasini amalga oshirish uchun maxsus vakolatli organlar (DYHXB, IIV, FVV, Hidrometeorologik xizmat, sud va boshqalar)ning muhri bilan tasdiqlangan hujjatlar. Shuningdek yo'l transport xodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida rasmiylashtirilgan elektron xabarnoma (evroprotokol) ham talab qilinishi mumkin.

Maxsus vakolatli organlar tomonidan hujjatlar taqdim etilmaydigan holatlar bo'yicha Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta dalolatnomasi tuzilishi va sug'urta qoplamasi amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lovini Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi sug'urta tovonini to'lashni so'rab murojaat etganidan so'ng 15 (o'n besh) bank kundan kechiktirmay pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Sug'urta qildiruvchining sug'urta tovonini to'lashni so'rab murojaat etgan kuni bo'lib, u tomonidan Sug'urtalovchining to'lov yoki rad etish to'g'risidagi qarorini qabul qilish uchun asos bo'lgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kun hisoblanadi.

Agar Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi zarar yetkazilganligi uchun javobgar shaxslardan tovon puli olgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta qilish shartlari bo'yicha, to'lanishi lozim bo'lgan summa va javobgar shaxsdan olingan summa o'rtasidagi farqni to'lab beradi.

Bunda Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi zudlik bilan yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan tovon puli olganligi haqida Sug'urtalovchiga xabar berishi lozim.

To'liq konstruktiv nobud bo'lish holati bo'yicha sug'urta tovonini to'lab berilganda, shikastlangan transport vositasiga egalik qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi. Bunda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuzilib, Sug'urta qildiruvchi transport vositasi va/yoki qo'shimcha uskunaning qolgan qismlarini Sug'urtalovchi ixtiyoriga beradi.

SUBROGATSIYA.

Fuqorolik kodeksning 957-moddasiga ko'ra, Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta tovonini to'lagan sug'urtalovchiga o'tkazishi shart.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to'langan summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

MAXSUS SHARTLAR

a) Agarda transport vositasi boshqa sug'urta tashkilotida ixtiyoriy sug'urta qilingan bo'lsa Fuqarolik kodeksining 941-moddasi "Birgalikda sug'urta qilish" qoidalariga ko'ra javobgarlik olib boriladi.

b) Sug'urta qildiruvchi tomonidan yangi muddatga sug'urta polisi xarid qilinganda amaldagi yoki muddati yakunlangan sug'urta Polisiga ko'ra sug'urta xodisasi kelib chiqqan bo'lsa yangi muddatga tuzilayotgan sug'urta Polisi uchun sug'urta tarif stavkasi o'zgartirilishi mumkin bunda,

- Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchidan amaldagi yoki muddati yakunlangan sug'urta Polisi bo'yicha sug'urta xodisasi sodir bo'lgan taqdirda yangi xarid qilinayotgan sug'urta polisi uchun qo'shimcha 50% sug'urta mukofoti to'lashni talab qilish huquqiga ega;

- Sug'urtalovchi sug'urtalanuvchidan amaldagi yoki muddati yakunlangan sug'urta Polisi bo'yicha sug'urta xodisasi sodir bo'lmagan bo'lsa yangi xarid qilinayotgan sug'urta Polisi uchun 50%dan chegirma (keshbek) asosida hisoblangan sug'urta mukofoti to'lash huquqiga ega. Bunda sug'urta tarifi stavkasi eng kami 1% miqdorgacha arzonlashtirilishi mumkin.

SUG'URTALOVCHINING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

« MY INSURANCE» AJST

Elektron pochta manzili: info@myinsurance.uz

Telefon raqam +998 71 205 19 19

Manzil: Toshkent shahri Mirobod tumani Kichik Mirobod ko'chasi 95 uy